

## 5 -sonli shartnoma

### «Iste'molchi» larga ichimlik va oqova suvi xizmatlarini ko'rsatish uchun

«\_21» январь 2022 yil.

Furqat tumani

Ushbu shartnoma «**Fargona suv taminoti**» M.Ch.J Furqat tumani bolimi, keyingi o'rinlarda «**Ta minotchi**» deb yuritiladi. Nizom asosida faoliyat yurituvchi Ruzmatov Mirvohidjon Mirzakbarovich shaxsida, bir tomondan va keyingi o'rinlarda «**Iste'molchi**» deb yuritiluvchi\_\_ Furqat tumani MTB bo'limi nizomi asosida ish olib boruvchi director **D.Qodirova** ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida tuzildi:

#### I.Shartnoma predmeti

1.1. 2022 yil uchun suv yetkazish hajmi uchun tuzilgan shartnomaga muvofiq yuridik tashkilotlari (bundan buyon matinda II guruh «Iste'molchi»lari deb yuritiladi) uchun suv yetkazish 1545so'm narx bo'yicha **16116 m<sup>3</sup>** ni:

1 m<sup>3</sup> ichimlik suv uchun narxi **1300** so'm, (+QQS 15 %) **195** so'm, (+144-qaror Maxsus ustama haqi) **50** so'm **Jami 1545** so'mni

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati 24899220 so'm ni tashkil qildi (yigirma to'rt million sakkiz yuz to'qson .to'qqiz .ming ikki..yuz yigirma)

Shu jumladan, budjet mablag'laridan 0 so'm, budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan, 0 so'm to'lanishi ko'zda tutilgan.

II-guruh iste'molchilari Qoidalarda belgilangan tarzda "Ta'minotchi" tomonidan taqdim qilingan hisobvaraqa-fakturalarga asosan, Moliya vazirligi G'aznachiligi orqali suv ta'minoti va oqova suvini chiqarish uchun o'tkazilgan mablag'lar orqali amalga oshiriladi.

1.2. «Ta'minotchi» «Iste'molchi»ni sifatli ichimlik suv bilan ta'minlash va «Iste'molchi»dan oqova suvlarni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. «Iste'molchi» «Ta'minotchi»ga ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlarni xar oyning 10 sanasigacha 100 foizlik oldindan haq to'lash tariqasida amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.4. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suv xizmatlari bo'yicha shartlarini bajarish. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iste'molchilarga suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko'rsatish Qoidalari"ga (keyinchalik matnda – Qoidalari deb yuritiladi), hamda mahalliy hokimiyat tomonidan tasdiqlanadigan maxsus ustama haqi **1m<sup>3</sup>** ichimlik suv uchun **1545 so'm**, **1m<sup>3</sup>** oqova suv xizmati uchun **0 so'm** bilan birga «Ta'minotchi» tomonidan taqdim qilingan ichimlik va oqova suv tizimiga ulanish uchun ruxsat etuvchi hujjatlarga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

#### II. Umumiy qoidalar

2.1. «Iste'molchi» «Ta'minotchi» tashkiloti ruxsati bilan va u texnik imkoniyatlarni mavjud deb topgan holatlarda, o'z tasarrufidagi ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, inshoot va qurilmalarga subiste'molchilarning ulanishiga ruxsat berish huquqiga ega.

2.2. «Iste'molchi» bilan subiste'molchi o'rtasida to'lov masalalarida paydo bo'ladigan nizolar «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

2.3. Agar «Iste'molchi» va unga ulangan subiste'molchi turli guruh va toifali iste'molchilariga mansub bo'lsa, «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnomani «Iste'molchi» ham, subiste'molchi ham tuzadi va suvni hisobga olish priborini o'rnatish har ikkalasi uchun ham majburiy hisoblanadi.

2.4. Ichimlik suvdan dov-daraxtlarni sug'orish uchun foydalanilishiga quyidagi istisno holatlarda yo'l qo'yiladi: irrigatsiya suvi bo'lmaganda, ta'minotchi tashkiloti quvvati mavjud bo'lganda va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan jadval bo'yicha, faqat tungi vaqtda (soat 00–00 dan soat 05–00 gacha) yo'l qo'yiladi.

2.5. Ichimlik va oqova suv xizmatidan iste'molchi xo'jalik-iste'mol, maishiy ehtiyoj va yong'inlarni o'chirish xamda texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun foydalaniladi.

2.6. Suvni hisobga olish priborlari O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tekshirilib plombalanadi, hamda «Ta'minotchi» tomonidan plombalanishi lozim. Shuningdek, ichimlik suvini xisobga olish priborini yechish, qiyoslashdan o'tkazish va o'rnatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.7. «Iste'molchi»ga o'rnatilishi lozim bo'lgan suv o'lchash priborining shartli o'tkazgichining diametri (kalibri) hisob-kitob asosida aniqlanadi, ob'ektning maksimal suv iste'moli va minimal suv iste'moliga tekshiriladi hamda «Iste'molchi» bilan kelishiladi. Hisoblash pribori uchun o'rnatilgan minimal iste'mol miqdoridan kam miqdorda suv iste'mol qilinganda, «Ta'minotchi» xodimi suv o'lchash tarmog'ini qaytadan qurilma bilan ta'minlash uchun ko'rsatma beradi, ushbu ko'rsatma bajarilmaganda, hisoblash priborining ko'rsatkichlari qabul qilinmaydi va hisoblash Qoidalarda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

2.8. Ichimlik va oqova suv xizmatlari xo'jaligining rekonstruksiyasi, hisoblash priborlarini ishga tushirish, hisoblash priborlarini almashtirish, yangi subiste'molchilarining ulanishi «Iste'molchi» tomonidan faqat «Ta'minotchi» tarafidan tasdiqlangan texnik shartlar va loyiha asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lib, ular «Iste'molchi»ning so'rovnomasi asosida, barcha tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qilgan holda beriladi. «Ta'minotchi»dan olingan texnik shartlar asosida, «Iste'molchi» buyurtmasiga asosan, amaldagi me'yori, qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqiladi.

2.9. Qurilgan ulamalarning ishga tushirilishi «Ta'minotchi» tomonidan, «Iste'molchi» va qurilish tashkilot vakillarining ishtirokida amalga oshiriladi.

2.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun tariflar va ustama haq miqdori o'zgargan sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan «Iste'molchi» bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va «Iste'molchi» ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

2.11. Quyidagilar «Ta'minotchi» tashkilotlari bilan «Iste'molchi»lar shu jumladan, xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari o'rtasidagi, ichimlik va oqova suv xizmatlari tarmoqlari, inshootlari xamda qurilmalariga xizmat ko'rsatish, ularning texnik holatini saqlash va foydalanish yuzasidan javobgarlik chegaralari hisoblanadi:

a) ichimlik suv iste'moli uchun — tarmoqqa ulanishini uzib qo'yuvchi kirish qulfi. Kirish qulfi bilan ichimlik suvga ulanish, «Iste'molchi»ning ichki ichimlik suvi tizimining bir qismi hisoblanadi;

b) oqova xizmati uchun — «Iste'molchi» oqova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistral oqova tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi oqova qudug'i (kamerasi) magistral oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu quduq «Ta'minotchi» tashkiloti oqova tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashtiruvchi foydalanish chizig'i esa «Iste'molchi»ning mablag'ilari hisobidan amalga oshiriladi.

### **III. Taraflarning huquq va majburiyatlari**

3.1. «Iste'molchi» ning huquqlari:

3.1.1. Tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun «Ta'minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya) lar to'lashni talab qilish;

3.1.2. «Ta'minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish

bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «Ta'minotchi» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatlari:

3.2.1. Oqava tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarini suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning but saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatda bo'lishini ta'minlash;

3.2.2. Iste'molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqava tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli iste'molchining oqava tarmoqlarida yoki «Ta'minotchi» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tashqi tarmoqlarida avariya (tiqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarini suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «Ta'minotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfinlari, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlash;

3.2.4. «Ta'minotchi» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarining shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik;

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda «Iste'molchi» 24 soat mobaynida «Ta'minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfinlarni plombalash uchun «Ta'minotchi» tashkiloti vakilini chaqirish;

3.2.6. «Ta'minotchi» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «Ta'minotchi»ga kechikmagan holda taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish.

3.3. «Ta'minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. «Ta'minotchi» tashkiloti, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a) «Iste'molchi»ga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqarsiz bo'lganda va «Ta'minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Ta'minotchi» tashkiloti talablari iste'molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta'minotchi» tashkilot mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va «Ta'minotchi» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;

v) «Ta'minotchi» tashkiloti tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste'molchilarni ulash ishlari amalga oshirilganda;



a) Ichimlik suvni hisobga olish pribori plombalari butligi, aylanish chizig'i jo'mragi, gidrant va boshqa suv uzatish moslamalaridagi qismlarining hududidi va tasarrufida bo'lgan plombalangan hisoblash qurilmalarining butun saqlanishi uchun;

b) Suv tarmoqlariga o'z boshimcha ulanib olish, sovuq suvni hisobga olish qurilmalarining qasddan buzilishiga yo'l qo'yish hamda suv hisoblash priborlaridagi ko'rsatkichlarni tashqaridan aralashgan holatlari uchun;

v) O'zboshimchalik bilan qurilgan inshootlar sababli tarmoqlardagi avariya bo'lgan holatlarda;

g) Drenaj tizmi mavjud bo'lsa «Iste'molchi» hududida joylashgan oqova tarmog'iga yomg'ir va erigan qor suvlarning tushishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu qoidabuzarlik aniqlanganda «Ta'minotchi» o'rnatilgan tartibda dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma «Iste'molchi»ning mas'uliyat va javobgarlik chorasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

d) Qonunchilikda o'rnatilgan boshqa hollarda.

4.3. «Ta'minotchi» quyidagi hollarda javobgardir:

a) Amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning talablariga muvofiq va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda;

b) «Iste'molchi»larga ichimlik va oqova suv xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan texnik shartlarni o'z vaqtida va ishonchli taqdim qilinishi uchun;

v) «Iste'molchi»ning hayoti, salomatligi va mol-mulkiga yetkazilgan zarar, ma'naviy zarar uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartib va miqdorda qoplash;

g) Shartnoma shartlari va yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaslik.

## **V. Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun hisoblar va to'lovlarning tartibi**

5.1. Ichimlik va oqova suv ta'minoti tizimidan chiqarilgan (qabul qilingan) suvning hisobi hisoblash pribori mavjud bo'lganda, hisobga olish priborining ko'rsatkichlariga muvofiq amaldagi tariflar bo'yicha QQSni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

5.2 «Iste'molchi» ichimlik va oqova suv xizmati uchun hisobga olish priborlari mavjud bo'lganda oxirgi uch oyning o'rtacha sarfi bo'yicha keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lashni amalga oshirishlari lozim.

5.3 To'lovning shartnomada belgilangandan kechiktirilgan har bir kuni uchun iste'molchi 0,4 foiz penya to'laydi. Ammo bu ko'rsatkich jami kechiktirilgan summaning 50 foizidan oshmasligi lozim.

5.4 «Iste'molchi» keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarni amalga oshirmasalar, iste'molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iste'molchilarni ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi. Bunday hollarda yong'indan saqlanish va sanitariya holatlari uchun javobgarlik to'liq «Iste'molchi» zimmasiga yuklatiladi. Suv ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimidan ilgari uzib qo'yilgan hollarda qayta ulashda «Iste'molchi»dan bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) barobari miqdorida to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali undiriladi;

5.5. Oqova tizimiga kelib tushuvchi oqova suvining miqdori, ichimlik suv tarmog'idan yetkazib beriladigan ichimlik suv miqdoriga teng. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud bo'lgan hollarda, iste'mol qilinuvchi ichimlik suv miqdoriga oqova suv tarmoqlari xisobi uchun 2.0 koeffitsiyenti qo'llaniladi. «Iste'molchi»ning o'zida suv ta'minotining qurilmalari mavjud bo'lsa, oqova suvlarining miqdori ushbu suv qurilmalarining mahsuldorligiga (o'rnatilgan va ro'yxatga olingan hisoblash priborlarining ko'rsatkichlariga) ko'paytiriladi. Ichki suv ta'minoti tizimi «Iste'molchi»ning shaxsiy avtonom manbasi bilan bog'liq bo'lmasligi lozim.

5.6. Ob'ekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv ob'ektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

5.7. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (artezian skvajinasi, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va boshqalar) mavjud bo'lganda oqova tizimiga oqova suvlarni oqizish uchun to'lovlar o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash priborining ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. «Iste'molchi»ga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi bilan tutashmagan bo'lishi shart.

## VI. Aloxida shartlar

6.1. Ob'ekt egasi o'zgarganda iste'molchi chiqib ketishidan 7 kun avval mavjud qarzlarini to'lab, bu haqda «Ta'minotchi» tashkiloti bilan dalolatnoma imzolashi shart. «Iste'molchi» chiqib ketgach suvni hisobga olish pribori, plombalarning butligi va qoplanmagan debitor qarzdorlik uchun javobgarlik ob'ektning yangi egasi zimmasiga yuklanadi.

6.2. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan ichimlik suvi xajmi quvurning o'tkazish qobiliyatidan kelib chiqib oyning kalendar kunlari hisobidan quyidagi formula asosida hisoblanadi: bunda:  $M-0.60$  ga teng bo'lgan zulfin orqali suv sarfi koeffitsiyenti;  $F$ -suyuqlik oqib o'tadigan quvur yoki teshik kesimi maydoni (ichki diametr bo'yicha)  $m^2$ ;  $g-9,81$  m/sek ga teng bo'lgan erkin tushish tezligi;  $N$ -suvning metrlardagi bosimi;  $t$ -vaqt-24 soat, sekundlarda. Quyidagi holatlarda yuqoridagi formula asosida hisoblanadi:

6.2.1. «Iste'molchi»da suv o'lchash pribori va moslamalari yo'q bo'lgan holatlarda (yoki nosoz xolatda);

6.2.2. Suv o'lchash pribori yoki moslamasi «Ta'minotchi»da ro'yxatdan o'tmagan taqdirda;

6.2.3. Ichimlik suvi bilan o'zboshimchalik bilan foydalanganda;

6.2.4. Suv o'lchash pribori, moslamasi ishdan chiqqan, singan, buzilgan holatda. sarflangan suv hajmi so'nggi tuzilgan dalolatnoma muddatidan yangi suv o'lchash pribori o'rnatilgan (ro'yhatdan o'tkazilgan) kungacha hisoblanadi;

6.2.5. «Ta'minotchi»ning suv o'lchash bo'g'inini diametiri kichikroq bo'lgan moslamaga almashtirish to'g'risidagi talabnomasi qondirilmagan va bajarilmagan holatlarda;

6.2.6. Suv o'lchash priborining hisob-kitobini olib borish bo'g'inidagi qo'yilgan himoya qoplamiga (plombaga) ruxsatsiz tegilish natijasida, ichimlik suv sarfini aniqlash imkoniyati chegaralanganda;

6.3. Ichimlik va oqova suv tizimlariga (jumladan yong'indan saqlanish gidrant va quvurlariga) o'zboshimchalik bilan ulanib olingan va foydalanilgan holatlar aniqlanganda «Ta'minotchi» tomonidan dalolatnoma tuziladi va shu tuzilgan dalolatnoma o'zboshimchalik bilan ulanib olgan shaxsning javobgarligi darajasini aniqlash va «Ta'minotchi» ga yetkazilgan zararni hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda: - to'lov muddati, eng so'nggi tuzilgan dalolatnoma sanasidan o'zboshimchalik bilan ulanib olingan kun sanasigacha yoki yangi suv o'lchash pribori o'rnatilib, ro'yhatdan o'tkazilgan kungacha yoki o'zboshimchalik bilan ulanish uzib tashlangan kunga qadar hisobga olinadi;

- o'zboshimchalik bilan ulanib olingan sanadan bu haqda ma'lum bo'lgan sanagacha, agar «Ta'minotchi» balansdagi tarmoqlarga ulanish sodir etilgan bo'lsa, bu muddat da'vo arizasi yozilgan muddatdan oshmasligi zarur. Agar o'zboshimchalik bilan ulangan sanani topish, aniqlash mumkin bo'lmasa, bu muddat da'vo muddatiga teng deb olinadi.

6.4. Texnik shartlar 2 yil muddatga beriladi. Belgilangan muddat tugagach buyurtmachi (obektni loyihalashtirish va qurishni boshlash uchun) loyiha muddatini cho'zdirishi yoki yangi texnik shartlarni olishi

zarur.

Texnik shartlari mavjud bo'lmagan holda yoki muddati o'tgan holda, «Ta'minotchi» tomonidan suv uzatish xizmatlarini yakunlashga asos bo'ladi.

6.5. «Iste'molchi» ichimlik va oqova suvni tarmoqlariga ulanish sanasi haqidagi hujjatlarni taqdim etmagan holatlarda «Ta'minotchi» tomonidan xokim qarori va kadastr hujjatlari hamda shu kabilar asosida hujjat bilan tasdiqlangan ulanish sanasi bo'yicha hisob-kitob qilishga haqlidir.

6.6. Ishlatilgan ichimlik suvi va qabul qilingan oqova suv uchun to'lovlar «Ta'minotchi» tomonidan taqdim etiladigan to'lov talabnomalari asosida ularga xizmat qiluvchi banklar orqali amalga oshiriladi. Bu to'lovlar «Iste'molchi» tomonidan 3 kunlik muddat ichida akseptsiz tartibda amalga oshiriladi. To'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Ta'minotchi» kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun 0,4 foiz penya yozadi va uning umumiy qiymati asosiy to'lovning 50%dan oshmasligi lozim.

6.7. Oqova tizimiga ruxsat etilmagan yomg'ir va erkin qor suvlari oqizilayotgan, ishlab chiqarish oqova suvlarini «Iste'molchi»lar tomonidan tashlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 3 fevral kuni qabul qilingan 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari" hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun «Iste'molchi»larga belgilangan tarifga nisbatan 3 (uch) barobar ortiriluvchi koeffitsent miqdor tartibida hisoblanadi.

6.8. Oqova suvni chiqarib yuborishning hajmi va tarkibi bo'yicha me'yorlar bilan belgilangan oqizishning yo'l qo'yiladigan cheklangan miqdoridan ortiqcha oqova suvlar va ifloslantiruvchi moddalarning chiqarish taqiqlanadi.

6.9. Ifloslantiruvchi moddalarni normativdan ortiqcha oqizganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblab yozish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 11 oktabrdagi "Tabiatni muhofaza qilishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-son qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

6.10. Ishlab chiqarish oqova suvlarini qabul qilish qoidalari hamda ifloslantiruvchi moddalarning O'zbekiston Respublikasi shaharlari va boshqa aholi punktlarining oqova tarmoqlariga normativdan ortiqcha oqizilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini hisoblash tartibi asosida amalga oshiriladi, debitor qarzdorlik to'lanmagan taqdirda «Iste'molchi» oqova tarmoqlaridan uzib qo'yiladi.

6.11. Hisob-kitobning noto'g'ri qilinganligi (tariflarning noto'g'ri hisobiga olinganligi va shu kabi holatlar) to'g'risida «Iste'molchi» yoziladigan e'tiroznoma to'lov hujjati olingandan keyin 5 kun muddatda «Ta'minotchi»ga taqdim etilishi kerak. E'tiroznoma «Iste'molchi»ni to'lov talabnomasi va xujjatida ko'rsatilgan summani to'liq va belgilangan muddatda to'lashdan ozod qilmaydi.

## **VII. Nizolarni hal etish tartibi**

7.1. Taraflar o'rtasida shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar, kelishuv yo'li bilan hal qilinadi. Agarda ikki tomonlama kelishuvga erishilmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik «Iste'molchi» davlat ro'yxatidan o'tgan sud organlarida ko'rib chiqiladi.

7.2. Ushbu shartnomada belgilangan holatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda Qonunchilikda belgilangan tartibda hal qilinadi.

## **VIII. Fors – major**

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar muzkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek, ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.



8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major xolati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatining shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

### IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi.

9.2 Shartnoma g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va .21.2022 yildan, 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.

### X. Taraflarning yuridik manzili:

«TA'MINOTCHI»

«Farg'ona suv ta'minoti» M.Ch.J

Furqat tumani bolimi

**Manzil:** Furqat tumani mevazor kuchasi

**Tel:** 73 549 13 70

**Hisob raqam:** 22 638 000 400 194 935 466

**STIR:** 200 144 908

**Bank kodi:** 00544

**Bank nomi:** Ipoteka bank Farg'ona viloyat filiali.



RAHBAR:

M. M. Ruzmatov

«ISTE'MOLCHI»

Furqat tumani MTB

**Manzil** Furqat tumani

**Tel:**

**G'az/h-r** 23402000300100001010

**Bank nomi:** Markaziy bank Toshkent sh.

**Bank kodi:** 00014 **STIR:** 201122919

**XHTUT:** 92400



RAHBAR:

D.Qodirova

**Shaxsiy raqam:** 100022860302387091100251001

**Bank nomi:** Markaziy bank Toshkent sh.

**Bank kodi:** 00014 **STIR:** 305153794

**G'aznachilik bo'linmasi nomi:** Furqat tumani G'aznachilik bo'limi \_\_\_\_\_

M.O'

## YURIDIK AHAMIYATGA EGA HYJJATLARNING QONUN HUJJATLARGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

21.01.2022 yil

Furqat tumani

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma

2. **Loyihaning nomi:** Furqat tumani maktabgacha ta'lim bo'limi va "Farg'ona suv ta'minoti" MChJ Furqat tumani bo'limi o'rtasida "Iste'molchi"larga ichimlik va oqava suvi xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi № 5-sonli shartnoma

3. **Loyixa ishlab chiqilgan va markazga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Shartnoma loyihasi 2022-yil 21-yanvar kuni ishlab chiqilgan va Yuridik xizmat ko'rsatish markaziga 2022-yil 21-yanvar kuni ekspertizadan o'tkazish va xulosa olish uchun kelib tushgan.

Shartnoma loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Furqat tuman yuridik xizmat  
ko'rsatish bosh yuriskonsulti



M.M.Axmedov